

UDK: 633.31:631.8:631.5

**KO'CHAT QALINLIGI VA MA'DAN O'G'ITLAR ME'YORLARINI  
KROTALARIYAYA PICHANI SIFAT KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI**

*Holiqova Dildora Bahodir qizi, tayanch doktoran,*

*Negmatova Surayyo Teshaevna, q.x.f.d., professor,*

*Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot  
instituti*

Respublikamiz chorvachiligini jadal rivojlantirishda ozuqabop ekin maydonlarini tashkil qilish har gektar xisobiga 100-150 s ozuqa birligi tayyorlash shu kunning eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Mollarni qishki va yozgi ratsionlarida shirali (silos, senaj va lavlagi), dag'al (beda pichani) va konsentrat ozuqalar belgilangan me'yorlarda bo'lishi shart va zarur [1]. Shu bois keyingi yillarda yangi yuqori hosilli va to'yimli, barqaror urug'li serunum ozuqabop ekinlar sinab ko'rilmoxda. Ular orasida krotalyariyani ham istiqbolli ozuqabop o'simliklar sifatida ko'rsatish mumkin.

Krotalariya yuqori oqsilli ozuqabop ekin hisoblanib, ozuqa sifatida ko'k massasi, quritilgan poyalari va pichani ishlatilib, bir amal davri davomida 4-5 martagacha ko'k massa hosili (400-500 s\ga) olish mumkin. Pichani tarkibida protein darajasi juda yuqori (18% dan 22% gacha) bo'lib, chorvachilikda yuqori kaloriyalı yem-xashak hisoblanadi [4].


J. Mosjidis va boshqalarni [3] ta'kidlashicha, krotalyariya barglarida hech qanday zaharlilik belgilari yo'q va chorva mollari uchun yem-xashak yoki silos sifatida ishlatish uchun xavfsiz, ko'k massa sifatida ham ko'pchilik chorva mollarining ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli miqdorda xom proteinga ega. Bundan tashqari, azot chorva go'ngi orqali yaylovga qaytariladi va tuproq unumdorligini oshiradi.

Jose Dubeux va boshqalar [2] tomonidan krotalyariya (*Crotalaria juncea L.*)

ning ikki navida: yarim oy (Crescent Sun) va havorang barg (Blue Leaf) navlarida o'simlik tarkibidagi xom protein miqdorlari o'rganilganda, ikkala navda ham xom protein miqdori yuqori - 18% ekanligi aniqlandi. Yarim oy navi havorang barg naviga nisbatan azotni ko'proq toplashi lekin, ozuqaviy miqdori kamligi kuzatildi.

Har qanday yangi ekinning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini baholash uchun avvalo, uning kimyoviy tarkibini o'rganish muhim hisoblanadi. Shu boisdan, ilmiy izlanishlarimizda krotalyariya pichani tarkibidagi umumiyoq oqsillar va azot miqdori aniqlandi.

Tajribaning 2022 yilda olingan ma'lumotlariga ko'ra, gektariga 10 kg ekilgan variantlarda azot miqdori 1,4; 1,7; 2,3; 2,8 % ni, gektariga 14 kg ekilgan variantlarda 1,9; 2,0; 2,2; 2,6 % ni, gektariga 18 kg ekilgan variantlarda esa 1,6; 1,74; 2,4; 2,3 % ni tashkil etib, bunda gektariga 10 kg ekilib, ma'dan o'g'itlarni yuqori me'yordi qo'llanilgan variantlarda pichan tarkibidagi azot miqdori eng yuqori ko'rsatkichlarni (2,3; 2,8 %) namoyon etib, gektariga 14 kg ekilib, xuddi shu ma'dan o'g'itlar me'yori qo'llanilgan 7, 8-variantlarga nisbatan 0,1-0,2% ga, gektariga 18 kg ekilib, shu ma'dan o'g'itlar me'yori qo'llanilgan variantlarga nisbatan esa 0,1-0,5 % ga yuqori bo'lganligi aniqlandi.



**Diagramma. Krotalyariya (Srotalaria juncea) pichanining sifat**

**ko'rsatkichlariga ko'chat qalinligi va o'g'it me'yorining ta'siri, 2022 y.**

Xuddi shunday qonuniyat pichan tarkibidagi oqsil miqdori bo'yicha ham kuzatilib, bunda oqsil miqdori gektariga 10 kg ekilib, ma'dan o'g'itlarni yuqori me'yorlari qo'llanilgan variantlarda bu ko'rsatkichlar mos ravishda 13,6; 13,3 % ni tashkil etib, gektariga 14 kg ekilib, xuddi shu ma'dan o'g'itlar me'yorlari qo'llanilgan 7,8-variantlarga nisbatan 0,1-0,8 % ga, gektariga 18 kg ekilib, shu ma'dan o'g'itlar me'yorlari qo'llanilgan variantlarga nisbatan esa 0,0-0,9 % ga yuqori bo'ldi.

**Xulosa.** Respublikamizning markaziy mintaqasi Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida parvarishlangan krotalariya pichani tarkibidagi yuqori azot va oqsil miqdorlari krotalariya urug'ini gektariga 10 kg me'yorda ekib, ma'dan o'g'itlarni yuqori N<sub>90</sub>P<sub>135</sub>K<sub>90</sub> va N<sub>120</sub>P<sub>180</sub>K<sub>120</sub> me'yorlari berilganda olinib, bunda azot miqdori o'rtacha 2,5-2,8 % ni, oqsil miqdori 13,3-14,8 % ni tashkil etdi. Bunda azot miqdori boshqa variantlarga nisbatan 0,2-0,5 % ga, oqsil miqdori esa 0,8-1,5 % yuqori bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Allashov B.D., Jamolov S.G.. "Cug'oriladigan maydonlarda ozuqabop ekinlarni yetishtirish" O'quv uslubiy qo'llanma – Toshkent, 2019. B. 21
2. Jose Dubeux, João Vendramini, Garcia L., Jaramillo D., Santos E., van Cleef F. Sunn Hemp: A Fast Growing Annual Forage Legume. UF/IFAS Agronomy Department. May 3, 2019.
3. Mosjidis J.A., J.M. Burke, and J.B. Hess. The facts about sunn hemp toxicity. Crop Sci. 52: 2012. Pp.1469-1474
1. Negmatova S.T., Yoqubov G.Q., Nurillaeva M., Yoqubov Sh.Q. Yem-xashak uchun yetishtirilgan crotalarianing osishi, rivojlayishi va hosildorligi. Yem-xashak uchun yetishtirilgan crotalarianing osishi, rivojlayishi va hosildorligi.